

## “FUTBOL QIROLI” YOXUD FUTBOL HAQIDA YOZILMAGAN ENG YAXSHI ASAR

**To'lanova Zulxumor Xudoberdi qizi**

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 3-  
bosqich 21.75-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada og'riqli mavzular kulgu bilan yoritib berilgan futbolga aloqasi yo'q bo'lgan satirik roman yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Aziz Nesin, “Futbol qiroli”, satirik roman, “Futbol kasalliklari”, futbol jamoalari.*

Turk adabiyotiga, ayniqsa, uning hajviyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, XX asr turk adabiyotidagina emas, jahon adabiyotidagi eng mashhur yozuvchi, dramaturg Aziz Nesindir. Uning asl ismi Mehmet Nusrat bo'lib, Aziz Nesin uning taxallusi. U 1915-yilning 20-dekabrida qrim-tatarlari oilasida tug'ilgan. Nafis san'at akademiyasida tahsil olgan. “Nuh kemasi” hajviy jurnalini nashr ettirgan. Ko'plab hajviy hikoya, poema va romanlar muallifi, siyosiy va ijtimoiy hajv ustasi. “Jinnilar ozod bo'ldi”, “Ishbilarmon odam”, “nozik va nafis”, “Xudoga shukr” va boshqa asarlari siyosiy o'tkir va dolzarb asarlar hisoblanadi. Ularda yozuvchi jamiyat illatlarini fosh qiladi, kulgili vaziyat, xususiyat va holatlar orqali kishilarni beixtiyor o'z nuqsonlari ustidan kulishga majbur etadi.

Aziz Nesin asarlarining qahramonlari - ish axtaraverib bezor bo'lgan mayda amaldorlar, omadsiz ziyoli va qashshoq ishchilar.

Ma'lumki, Aziz Nesin faqat sharq adabiyotidagina emas, balki butun dunyo adabiyotidagi noyob iste'dod egalaridan biridir. Uning asarlari juda ko'p chet tillariga tarjima qilingan. Shuningdek, “Musht ketdi”, “G'aroyib bolalar”, “Hushtak afandim”, “Futbol qiroli” kabi asarlari va ko'plab hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Xususan, “Futbol qiroli” romani Turkiyada ham juda mashhur bo'lib, u bir qancha Yevropa tillariga tarjima qilingan. Bu sevgiga bo'lgan cheksiz sadoqati futbol yulduzi bo'lishga majbur qilgan tortinchoq, kasalmand, nimjon, yosh o'spirin yigit Said Mallazoda haqidagi quvnoq qissadir. Shu bilan bir qatorda “Futbol qiroli” xorijiy sport olamida hukm surayotgan odatlar haqidagi roman, “Futbol kasalliklari”ni o'rganuvchi o'ziga xos ijtimoiy asardir. “Futbol qiroli” komedik romani ilk bora 1957-yilda “Futbol qiroli. Said Ofsayd” nomi ostida nashr qilingan.

1970-yilda yozuvchi yana o'z romaniga qaytib, uni to'ldirilgan holda qayta chop etadi.

Muallif asarda kitobxonni nafaqat ajoyib yumor bilan kuldiradi, balki og'riqli mavzular bilan o'ylantirib ham qo'yadi. Asarda Said ismli badavlat, ammo nihoyatda sodda va qo'rqqoq yigit, buning ustiga ko'rish qobiliyati ham zaif yigitcha tasodifan obro'li oila farzandi, lekin yengiltabiat Sevim ismli qizga oshiq bo'ladi. Qiz esa Saidning yosh bolalarcha samimiy, sof sevgisi ustidan ayovsiz kulib, uni kalaka qiladi. Yigit shu qadar soddaki, Sevimdan bir bora bo'sa olganidan so'ng, qiz uning

qornidagi bolaning otasi ekanligiga ishontiradi. Eng achinarlisi shundaki, Said bundan hech shubha qilmasdan, aksincha quvonadi:

Bunday o'ljani qo'ldan boy berish mumkin emas. Faqat uni uchratsa bas! Uni qanday shaydo qilish va umrbod tuzoqqa ilintirishni o'zi biladi. Buning uchun nim qorong'ulik va ikki og'izgina shirin suhbat bo'lsa kifoya... "Sevgilim, yaqinda jujuqlik bo'lamiz" - deydi unga. Biron insofli, ya'ni go'l erkak – erkaklarning ko'pchiligi shunday bo'lishadi - churq etib e'tiroz bildirishga ham jur'at qilolmaydi. Buning ustiga u haq gapni aytadi: axir u haqiqatan ham farzand kutmoqda. Xuddi shu Said uning otasi bo'lishi kerak. Shunday ahd qildi tashlab ketilgan va baxti qaro qiz.

...Xuddi shu payt Ahmad qat'iy hujumga tashlandi.

-Yaqinda emish-a!.. Tushingni suvga ayt!.. Qornini chiqarib qo'yishga ulguribsan-ku! Said hatto sakrab tushdi.

-Nima? Ikkiqat? Sevim-a?

-Kim bo'lmasa? Yoki menmi?

Said quvonchidan qotib qoldi. U farzandlik bo'ladi! Jajjiga bolacha "Dada" deydi. Yo Xudo, bu qanday katta baxt-a! Albatta, Sevim qancha xohlamasin undan bo'yida bo'lolmasdi. Chunki ular bir martagina o'pishishgandi xolos... Lekin endi buning ahamiyati yo'q... Eng muhimi shuki, Bu haqda odamlar gapira boshlashdi va hamma bunga ishonadi...

Asar syujeti davomida Said Sevimning futbolga qiziqishini ko'rib kata futbolchi bo'lishga harakat qiladi. Lekin aslida u futbol haqida umuman biror ma'lumotga ega bo'lolmay, hatto komandalari nomini ham bilmas, balki qiziqmas edi:

O'yin tamom bo'lishiga ozgina qolganda yana bitta to'p kiritildi, sharhlovchi buni hech bir zavq-shavqsiz e'lon qildi. Xursand bo'lgan Said o'rnidan turib ketdi, biroq Sevim kuyunib shivirladi:

-O'tir...Bizning darvozaga to'p kiritishdi-ku! Axir...

-Bizga? Bizning darvozamizga? Said unga tasalli bermoqchi bo'ldi.

-Iltimos tinch qo'y. Biroz o'zimga kelay.

Sevim o'z xonasiga kirib ketdi. Yolg'iz qolgan Said bunday go'zal qaylig'ining qalbiga olib boradigan yo'llar haqida o'ylay boshladi... Eh, agar mashhur futbolchi bo'lib qolsa bormi! Ahmad Devor yoki aqalli braziliyalik mashhur Peleday...

Saidning bu harakati basketbolni o'rganib, sevgan qiziga yoqishga harakat qilgan "Jodu" filmidagi Roxitni eslatdi menga. Nihoyat o'zgarishga qaror qilgach qattiq mehnat va ozroq omad oqibatida oxir-oqibat katta futbol yulduziga aylanadi. Erkak sifatida o'sadi va bir paytlar ustidan kulganlardan ajoyib tarzda qasos oladi. Albatta, bu darajaga yetishda do'sti Amerikalik psixiatr Rafiqning ham xizmati o'ta kata bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, romanda professional sportda hukm surayotgan noprofessional odob-axloq va iflos "o'yinlar" satirik usulda tasvirlanadi. Kitob shunchaki futbol muammolari to'g'risida emas, futbol umuman asosiy planda ham turmaydi. Aslida "Futbol qirol" tom ma'noda bir insonning rivojlanib borishini, o'z shaxsiy fikri va hayotini qurishga bo'lgan harakatlarini ifoda etadigan asardir. Bu

asar har bir inson o'z taqdirining ijodkori ekanligini yana bir bor barchaga isbot etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. B. Boyqobilov, X. Eshto'xtarov tarjimasi "Futbol qiroli" O'zbekiston LSKM Markaziy Komiteti "Yosh Gvardiya" nashriyoti Toshkent – 1978.
2. Aziz Nesin "Futbol qiroli" Toshkent "Yangi nashr" – 2019
3. M. Saribayeva Turkiy xalqlaradabiyoti tarixi fanidan qo'llanma Guliston – 2014
4. V. Garbuzova Turk adabiyoti klassiklari Toshkent- 1960
5. D. Abdullayeva "Turkiy xalqlar adabiyoti"
6. Ziyouz.com kutubxonasi.

